

XORAZM OHANGLARIDA ABADIY AKS ETGAN SADO

Narzullayeva Durdona Panji qizi

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek Milliy musiqa san'ati instituti.

An'anaviy xonandalik bo'limi 2 bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15696563>

Annatotsiya. Ushbu maqola Xorazm musiqiy madaniyatining yirik namoyandalaridan biri, iste'dodli bastakor, ustoz-shogird an'anasi davomchisi va tajribali pedagog Bozorboy O'rinnov faoliyatiga bag'ishlangan. Unda O'rinnovning Xorazm maqom san'atini rivojlanirishdagi xizmatlari, xalq og'zaki ijodi va professional musiqa uyg'unligi asosida yaratilgan asarlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Bozorboy O'rinnov, Xorazm maqomlari, ashulachilik san'ati, pedagogika

Аннотация. Данная статья посвящена творчеству Бозорбоя Уринова — талантливого композитора, педагога и знатока хоразмской макомной традиции. В работе освещается его вклад в развитие устно-профессионального музыкального искусства Хорезма, а также значение его научно-творческих усилий по сохранению и обогащению макомного наследия. Особое внимание уделено роли композитора в педагогике и воспитании молодежи на основе национальных музыкальных традиций.

Ключевые слова: Бозорбой Уринов, хоразмская макомная традиция, устно-профессиональное искусство, композитор, педагог, музыкальное наследие.

Annotation. An article about the “bastakor” Bozorboy Urinov, the “bastakor” who lived and worked in Khorezm, the researcher of the Khorezm maqoms, the successor of the “ustaz-shogird” tradition. His work is dedicated to the art of Khorezm singing and his contribution to the Khorezm maqoms.

Keywords: Bozorboy Urinov, Khorezm maqom tradition, Khorezm vocal art, composer, pedagogue, master-apprentice tradition.

KIRISH. Inson umrining asl mohiyati o'zidan o'chmas bir iz qoldira olishi, bu uning hayot ila mamoti kabi, eng buyuk orzu istagi hamdir. Aynan bitta sohada o'zini mahoratini bor kuchini ko'rsata olsa va shu soha rivojigga hissa qo'shsagina o'zidan nimdir qoldirgan hisoblandi.

Umrining eng katta qadriyati – bu o'zidan ijobiy iz qoldirish, kelajak avlodga foydali meros qoldirishga intilishidir. Har qanday kasb egasi bu orzuga intiladi. San'atkorlar esa, ayniqsa, ijodi orqali jamiyatda yuksak ma'naviy o'zgarishlar qilishi mumkin. Ular kuy va ohang, so'z va sahna orqali inson qalbiga yo'l topadi. Aynan shunday ijodkorlardan biri – Xorazm musiqa maktabining yetuk vakili Bozorboy O'rinnovdir.

Ushbu maqlolada Bozorboy O'rinnovning o'zbek musiqa san'atidagi xizmatlari, ayniqsa, Xorazm maqomlarining targ'iboti va rivojlanishidagi o'rni tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Bozorboy O'rinnov 1951-yilda Xorazm viloyatining Xonqa tumanida oddiy ishchi oilasida tug'ilgan. Uning musiqa san'atiga bo'lgan mehri yoshligidanoq yaqqol sezilgan. U dastlab Urganchdagi Matyusuf Xarratov nomidagi musiqa bilim yurtida (1966–1970), keyin esa Toshkent Davlat pedagogika institutining musiqa fakultetida (1970–1974) tahsil

oladi. Bu davr mobaynida u nafaqat musiqa bilimlarini egalladi, balki Xorazm xalq kuylariga mehr qo‘ydi.

1974-yildan boshlab u Xonqa tumanidagi Bolalar musiqa va san’at mакtabida o‘qituvchilik faoliyatini boshlaydi. O‘rinovning o‘ziga xos pedagogik uslubi, kuy va ohangni xalqona uslubda o‘rgatish tajribasi ko‘plab iste’dodli shogirdlarning yetishib chiqishiga sabab bo‘ladi. U xalqni dardini, orzu istagi-yu umidlarini o‘z ijrolarida xonish aylagan va shu bilan birga ulug’vor maqsadlar asosida qalamini tebratib sozini chalgan musiqa ahli vakillaridir. U butun umri va ijodiy faoliyatini Respublikada havaskorlik va professional musiqa san’atini rivojlantirishga bag’ishladi. Necha asrlardan beri ustoz-shogird an’anasi talqinida bizgacha yetib kelgan beba ho boyligimiz va milliy musiqamiz gultozi bo’lmish maqomchilik san’ati, aynan Xorazm maqomlarini bugungi kun ijrosida, Respublika teleradiokompaniyalari oltin xazinasining magnit tasmalari va videotasvirlariga yozdirishdek, dolzarb hamda savobli ishlarnii amalga oshirdi. Qolaversa Xorazm teleradiokompaniyasi maqom jamoasining badiiy rahbari bo’libgina qolmay, jamoa ijrosidagi Xorazm maqomlarining Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq va Panjgoh maqomlarini aytim yo’llari(Nasr bo’limi)ni, ma’lum bir lad tizimi asosida notaga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bozorboy O‘rinov faoliyatining markazida har doim xalq musiqasi, ayniqsa Xorazm maqomlari turgan. U Xorazm teleradiokompaniyasining maqom jamoasida badiiy rahbar sifatida ishlagan. Bu yerda u Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq, Panjgoh kabi maqom yo’llarining aytim bo’limlarini notaga olish va yozib olish bo‘yicha beqiyos ishlarni amalga oshirgan.

Shuningdek, u “Qal’abanda” va “Rok” turkumlarining ayrim yo‘qolib borayotgan qismlarini tiklab, ularni yangi bastakorlik ishlari bilan boyitgan. Bu orqali u maqomchiligining uzviy rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Bozorboy O‘rinov o‘tmish ijodkorlari an’anasiga sodiq qolgan holda ularning ishlarini davom ettirib, Xorazm “Qal’abanda” va “Rok” turkumlarining yo‘qolib borayotgan qismlarini yangidan bastalab to’ldirish bilan birga, o’zi ham 20 dan ortiq an’anaviy maqom yo’llaridagi ashulalar yaratgan.

Bastakor haqida O‘zbekiston kompozitorlar uyushmasi raisi, kompozitor Rustam Abdullayev shunday deydi: “Bozorboy uyushmamizning a’zosi, iste’dodli bastakorlarimizdan biridir. Uning musiqalari jo’shqin, jozibali va tezda esda qoluvchi, yoqimli, original-professional asarlar bo’lib, bastakorning “Muallimlar”, “Vatan posbonlari”, “Mustaqillik qasidasi”, “Vatan”, “Mehr nurin sochib yashang, odamlar”, “Manguberdi-vorisimiz” nomli xor va vokal asarlari, hamda “Yurtimizda shodiyona” vokal - xoreografik syuitasi nufuzli Respublika qo’shiq bayramlarida zo’r mahorat bilan ijro etilib, lauriatlik diplomlari va pul mukofotlari bilan taqdirlandi. Ayniqsa. uning 1997 yilda xalqaro YUNESKO tashkiloti hamkorligida o’tkazilgan Xivaning 2500 yillik yubileyida ijro etilgan “Sizmusiz” qo’shig’i tomoshabinlar va chet ellik mehmonlarning olqishiga sazovor bo’ldi.

Uning Respublika Mustaqillik va Navro’z xalq bayramlarida Xorazm badiiy jamoasi tomonidan to’laqonli ijro etilgan “To’ya galing”, “Shoshma qizcha”,

“Lachakingnan-ov”, “Kampirjon aynonin, gal qujoqa”, “Xorazmda Xiva bor”, “Chopqida chopilg'angina”, “Qovun savdosi” kabi 10 dan ortiq o'ynoqi, sho'x shodon zamonaviy folklor asarlari tomoshabinlar va chet ellik mehmonlarni hayratga solgan.

Maxsus bayram dasturlariga kiritilgan bu hayratomuz tomoshalar sun'iy yo'ldosh orqali ko'plab horijiy davlatlar telekanallarida namoyish etilganligi, Bozorboyning olamshumul, ulkan ijodiy yutug'idir”.

Qahramonimizning ijodiy mevalari tarixiy va dolzarb mavzularda oltita spektakl, uchta videofilmga musiqa, Vatanga sadoqat va vatanparvarlik ruhida yozilgan 30 dan ortiq yirik xor va vokal asarlari, 50 dan ortiq lirik qo'shiqlar, 20 dan ortiq milliy estrada yo'nalishidagi qo'shiqlar, 30 ga yaqin bolalar qo'shiqlari, folklor va ansambl jamoalari uchun 40 dan ortiq hazil va hajviv qo'shiqlar, hamda sho'x kupletlar, 20 dan ortiq maqom tarzidagi original ashulalar yaratib, o'zbek milliy musiqa san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Bozorboy O'rino hayoti davomida musiqa pedagogikasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. U Urganch san'at kolleji va boshqa ta'lim muassasalarida ko'plab yoshlar bilan ishlagan. O'zining nazariy bilimlari va amaliy tajribasini yoshlarga o'rgatish, milliy musiqa ruhini ularning qalbiga singdirish — uning umrining mazmunini tashkil qilgan.

Ijodkor umrining oxirigacha o'z faoliyatini pedagogik yo'nalishda olib bordi, o'zi tahsil olgan Urganch san'at ko'llejida ko'plab shogirdlar yetishtirish, o'z bilganlarini kelajak avlodga qoldirish, Xorazm maqomlarini targ'ib qilishga sarf qildi.

Ayniqsa uning Xorazm maqomlari uchun qilgan xizmatlari, umuman o'zbek maqomotida o'chmas bir iz qoldirgan desak mubolag'a bo'limgan bo'lar edi. Xususan Xorazm 6 yarim maqomining 7 maqomga to'ldirilishi bunga asos bo'ldi. Panjoh maqomining aytim yo'llarini to'ldirish uning nomini abadiylashtirdi.

1. Tani maqom
2. Tarona
3. Suvora
4. Naqsh
5. Faryod
6. Ufor

Ushbu maqom sho'balari aynan Panjoh maqomining aytim yo'llari bo'lib, bastakor ilmiy izlanishlarining yorqin namunasi bo'la oldi.

XULOSA. Bozorboy O'rino hayoti va ijodi o'zbek milliy musiqa san'ati, xususan, Xorazm maqomlari taraqqiyoti tarixida muhim o'rin egallaydi. Ustoz-shogird an'analarini davom ettirib, u nafaqat mavjud merosni saqladi, balki uni boyitdi, rivojlantirdi va keyingi avlodlarga yetkazdi. Bugungi kunda uning asarlari, notaga olingan maqomlari, ijrochilik maktabi – bularning barchasi O'zbekistonda maqom san'atining yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Foydalaniman adabiyotlar

1. Ahmad Hamidovich Jabborov. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. Toshkent “Yangi asr avlod” 2004.
2. Otanazar Matyoqubov. Maqomot. Musiqa nashriyoti Toshkent 2004.
3. **Ro'znomalar:** Xorazm madaniyati va san'ati 2004-yil iyul; Xorazm madaniyati san'ati 2004-yil, avgust
4. *Pirmatova N. FARG 'ONA-TOSHKENT MAQOM YO'LLARI //Modern Science and Research.* – 2024. – T. 3. – №. 12. – C. 1294-1296.
5. *Pirmatova N. ATOQLI MAQOM IJROCHILARI //Modern Science and Research.* – 2024. – T. 3. – №. 12. – C. 907-912.